

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV O‘QUV METODLARIDAN FOYDALANISH MODEL

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *model, metodika, mexanizm, intellektual qobiliyat, lingvistik kompetensiya, integratsiya, innovatsiya, kommunikativ ko‘nikma, didaktik vositalar*

Kommunikativ ko‘nikmalar bu o‘quvchining tengdoshlari, kattalar va ijtimoiy muhit bilan fikr almashish, yozma va og‘zaki nutq orqali o‘z fikrini ifoda etish, tinglash va munosabat bildirish qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi kompleks tafakkur va nutq faoliyatidir. Mazkur ko‘nikmalar faqat til darslarida emas, balki barcha fanlarda, ayniqsa, fanlararo bog‘lanish jarayonida rivojlanishi kerak bo‘lgan asosiy kompetensiya sifatida qaralmoqda.

YUNESKO, OECD, CEFR kabi xalqaro ta’lim platformalari ta’limning maqsadlaridan biri sifatida funksional savodxonlik (functional literacy) va kommunikativ kompetensiya (communicative competence)ni belgilar ekan, buni shaxsni har qanday ijtimoiy vaziyatda muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini ifoda etadigan, boshqalarni tinglaydigan va yechim taklif etadigan darajaga olib chiqish sifatida tushuntiradi. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat lingvistik, balki tarbiyaviy, madaniy, ijtimoiy va axloqiy maqsadlarni ham o‘z ichiga olgan tarkibiy vazifa hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fanlar o‘rtasida bog‘lanish, integrativ usullar, amaliy topshiriqlar va muloqotni rag‘batlantiruvchi faoliyat turlari zarur bo‘ladi. Ana shunday yondashuv orqali bolalarda nafaqat savodxonlik, balki so‘zlashish, fikrlash va tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyati ham rivojlanadi. Shunday qilib, kommunikativ ko‘nikmani zamonaviy ta’limda ustuvor maqsad sifatida belgilash pedagogik zaruratga aylangan.

Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda integrativ yondashuvning alohida o‘rni shundaki, u ta’limni tabiiy muloqot muhitiga yaqinlashtiradi. Ya’ni, o‘quvchi muayyan fanning doirasida emas, balki turli fanlar o‘rtasidagi mazmunli bog‘lanish asosida fikr bildirishga, tinglashga va so‘z orqali o‘z munosabatini anglatishga undaladi. Integrativ mashg‘ulotlarda muloqot vosita emas, balki maqsadga aylanadi. Bu esa nutq faolligini sun‘iy shaklda emas, tabiiy va hayotiy kontekstda faollashtirish imkonini beradi. Masalan, tabiiy fanlarda “Suv manbalarilari” (2-qism; 22-bet) mavzusini o‘rganayotgan o‘quvchi o‘qish savodxonligida “Suvda xotira bor” (3-qism; 31-bet) kabi badiiy matn bilan tanishsa, u nafaqat bilimni o‘zlashtiradi, balki sevgan, his qilgan va anglagan ob’ekt haqida mulohaza yuritishga moyil bo‘ladi. Agar shu darsda “*Sen suvsan, odamlarga qanday murojaat qilar eding?*” kabi rolly ijodiy topshiriq berilsa, bola o‘zini so‘zda ifoda etishga, hissiy munosabatini muloqot orqali bayon qilishga harakat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida fanlararo integratsiya imkoniyatlarini tizimlashtirish va metodik yo‘naltirish uchun

mukammal model zarur. Bunday model nazariy asosga ega, amaliy yo‘nalishdagi, muloqotni ta’limning markaziy elementi sifatida tashkil etuvchi, fanlararo uyg‘unlikda shakllantirilgan pedagogik tizimdir. Mazkur tadqiqot doirasida yaratilgan modelni ishlab chiqishga ilmiy asos sifatida avvalo L.S.Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”, V.V.Davydovning faol-tahliliy o‘qitish nazariyasi, J.Brunerning ma’no yaratish va muloqotli anglashga asoslangan ta’lim konsepsiyalari xizmat qildi. Ushbu yondashuvlarda ta’lim faol muloqot va kognitiv jarayonlar uyg‘unligida amalga oshirilishi ta’kidlangan.

Amaliyot nuqtai nazaridan esa hozirgi ta’lim tizimida fanlar o‘rtasidagi mazmunli bog‘lanish yetishmasligi, o‘quvchining bilimni faqat passiv o‘zlashtirishi, muloqotga kirishishda ishonchsizlik va nutqiy qiyinchiliklarning kuzatilishi bunday model yaratishga ehtiyoj tug‘dirdi. Har bir fanning muloqotga xos imkoniyatlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladigan ta’lim bolada shaxsiy munosabat, ijtimoiy anglash va ma’noli fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, yaratilgan model integrativ yo‘nalishdagi ta’lim mazmuni, faol muloqotni rag‘batlantiruvchi texnologiyalar, pedagogik ko‘mak mexanizmlari va belgilangan kommunikativ ko‘nikmalarni baholash indikatorlari bilan to‘laqonli tizim sifatida shakllantirildi. U ta’limda kognitiv va muloqotga asoslangan rivojlanishni uyg‘un tarzda ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldidagi asosiy ijtimoiy buyurtma bilimligina emas, ishonchli muloqotchi, anglovchi, munosabat bildiruvchi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan faol shaxsni shakllantirishdir. Zamonaviy jamiyat kommunikatsiya tezligi, axborot oqimi va interaktiv munosabatlar to‘lqinida yashar ekan, unga moslashuvchan, so‘z bilan anglash va anglatish qobiliyatiga ega inson talab etiladi. Ta’lim esa bu jarayonning fundamental asosi sifatida bolani boshlang‘ich bosqichdanoq muloqotchi shaxsga aylantirishi zarur.

Kommunikativ shaxs – bu nafaqat gapira oladigan, balki mazmun yaratadigan, fikrni anglaydigan, murakkab ijtimoiy holatlarda tengdoshi va kattalar bilan to‘g‘ri munosabat qurishni biladigan shaxsdir. U darsda savol beradi, fikr bildirishdan qo‘rqmaydi, o‘z nuqtai nazarini himoya qiladi, bir vaqtning o‘zida guruhda ishlash, tinglash, tushunish va to‘g‘ri javob qaytarish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Bunday qobiliyat esa nazariy bilimni o‘zlashtirish emas, balki muloqot muhitida faol ishtirok etish orqali shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

6. Darri M. Developing Children's Communicative Competence. – London: Routledge, 2009. – S. 18.
7. Faella P., Digennaro S., Iannaccone A. *Educational practices in motion: a scoping review of embodied learning approaches in school* // Frontiers in Education. 2025. Vol.10. Article (scoping review).
8. Greene J.P., Erickson H.H., Watson A.R. *The Play's the Thing: Experimentally Examining the Social and Cognitive Effects of School Field Trips to Live Theater Performances* // Educational Researcher. 2018. Vol.47.
9. Hajong A., Ambedkar V. *Enhancing communication skills and self-confidence through constructivist teaching: A comparative study* // [Electronic resource]. — May 2025.

10. Infante C., Klassen R.M., Chikako T. *Primary School Teachers' Perceptions of the Level of Development of Low-order Cognitive Skills in CLIL* // *Frontiers in Education*. 2022. Vol.7. Article 815027.
11. Islam M.B., Ahmed A., Islam M.K., Shamsuddin A.K. *Child education through animation: an experimental study* // arXiv:1411.1897. 2014.